KOLLEMBOLALARNING KEMIRUVCHI TUXUMLARIDA ORALIQ XO'JAYINI SIFATIDA ISHTIROK ETISHI

Atoyeva Dilsora Odil qizi

O’zbekiston Milliy universiteti 1-kus magistranti

Annotatsiya: Dunyoda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga bo'lgan talabning ortishi agrotsenozlar hosildorligini oshirish va bioxavfsizligini ta’minlashga bo'lgan talabning ham oshishiga olib kelmoqda. Biroq so'nggi yillarda Kollembolalarning kemiruvchilar tsestodalarining oraliq xo'jayini sifatida aniqlashgan. Bu o'rinda, agrotsenozlardagi kollembolalar faunasini aniqlash hamda ekologik-taksonomik tarkibini baholash dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so’zlar: Kemiruvchi, tsestoda, oraliq xo'jayin, Kollembola, biogeotsenoz

Turli biogeotsenozlarning strukturasida kollembolalar o'ziga xos o'rinni egallaydi. Past haroratga nisbatan keng doiradagi moslashish qobiliyatiga ega bo'lgan kollembolalarning ko'pchilik turlari o'z rivojlanishining istalgan bosqichida qishlashi mumkin [1].

Kollembolalar keng ma’noda saprofaglar hisoblanadi, biroq o'zining ozuqa ratsionida hayvonot kelib chiqishiga ega ozuqaning sezilalari ulushiga egadirlar. Kollembolalar ichagidagi ovqat qoldiqlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, unda boshqa umurtqasiz hayvonlar, shu jumladan boshqa turdagi kollembolalarning mavjudligi aniqlandi [2]. Laboratoriya tadqiqotlarida kollembolalar o'simlik ozuqasiga emas, balki ko'proq hayvonot kelib chiqishiga ega ozuqaga moyillik ko'rsatishgan.

Bizning tadqiqotlarimizda laboratoriya sharoitidagi yuqtirishda kollembolalar tsestodalar yetuk urg'ochi proglottidlarining tuxumlarini ishtaha bilan yeyishgan. Tabiatda kollembolalar zamburug'larning meva tanachalari, o'simliklarning tugunaklari va ildizpoyalari atrofida to'planishadi va shu bilan ular kemiruvchilar tomonidan substrat bilan iste’mol qilinishi va kemiruvchilarni tsestodalarning oraliq xo'jayini sifatida ularning hayotiy tsiklini davom etishida ishtirok etadi.

Kollembolalarning kemiruvchilar tsestodalarining oraliq xo'jayini sifatidagi dastlabki ma’lumotlar Chaunsk pasttekisligida L.V. Smirnova tomonidan olingan. *H. horrida (sin.) va P. omphalodes* larning lichinkalari ularni spontan ravishda yuqtirib olgan Hypogasrura tullbergi (Hypogastruridae) da aniqlangan.

Onychiurus octopunctatus va O. flavorufulus (Onychiuridae) larni eksperimental yuqtirishda tsestodalarning beshta turidagi tsistitserkoidlarning rivojlanishi o'rganilgan.

Kemiruvchilar tsestodalarining oraliq xo'jayinlarini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlarda *Supraphorura furcifera (Onychiuridae) i Tomocerus sibiricus Reuter, 1891, T. Minutus Tuelberg, 1876 (Tomoceridae)* kollembolalarining laboratoriya kulturalaridan foydalanildi [3].

Mazkur tur tsistitserkoidlarining ba’zi bir belgilari ularni dilepididlar bilan qardoshligidan guvohlik beradi. *Monocercus (Dilepididae*) avlodi tsestodalari xuddi A. tenuicirrosa ga o'xshab, yopuvchi klapanlarning yo'qligi, tserkomerning metatsestodani to'liq shakllanishigacha ajralishi, ekskretor mag'izning shakllanishi bilan xarakterlanadi [4].

A. arctica tsestodalari lichinkalarining turli rivojlanish bosqichlarida eksperimental zararlangan Onychiurus (Protaphorura) taimyrica va O. (P.) furcifer berilgan. Rivojlangan tsisterkoidlar infektsiyadan 70 kun o'tgach kuzatilgan. Kollembola tabiiy sharoitda A. arctica tsestodalarining oraliq xo'jayini, kemiruvchilarning parazitlari bo'lishi taxmin qilinadi.

Ta’kidlash joizki, adabiyotlardagi ma’lumotlar hisobga olinsa, kollembolarning ko'pchilik turlari va oilalari tsestodalarning tuxumlari bilan osongina zararlanishi mumkin. Bizning tadqiqotlarimizda turlarni tanlash kulturani saqlashning oson bo'lishi uchun qilingan bo'lishiga qaramasdan, yuqtirish muvaffaqiyatli o'tdi. Bu shundan guvohlik beradiki, tabiatda ham keng doiradagi kollembolar turlarining o'ziga tsestodalarni yuqtirib olishi va ularda invazion lichinkalarning shakllanishi ehtimoldan holi emas.

Shunday qilib, o'rmon biogeotsenozlarida keng tarqalgan kollembolalar tajribalarda kemiruvchilar tuxumlarini yuqtirib oladi va *A. tenuicirrosa* ning oraliq

xo'jayinlari sifatida ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, ular laboratoriya sharoitlarida yaxshi ko'payadi va parazitlar hayotiy tsiklini o'rganish uchun ob’yekt sifatida xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ishlari:

1. Bajer A, Behnke JM, Pawelczyk A, Kuliś K, Sereda MJ, Siński E. Medium-term temporal stability of the helminth component community structure in bank voles (*Clethrionomys glareolus*) from the Mazury Lake District region of Poland. Parasitology. 2005;130:213–28.

2. McAllister CT, Tkach VV, Conn DB. Morphological and molecular characterization of post-larval pre-tetrathyridia of *Mesocestoides* sp. (Cestoda: Cyclophyllidea) from ground skink, *Scincella lateralis* (Sauria: Scincidae), from southeastern Oklahoma. J Parasitol. 2018;104:246–53.

3. D. P. Kozlov collembola as possible intermediate hosts of avitellina arctica cestoda, anoplocephalata) Moskva 1994

4. Yanchev YI, Petrov IK.*Mesocestoides melesi* sp. n. (Cestoda, Mesocestoididae) in *Meles meles* L. from Bulgaria. Comput Rend Acad Bulg Sci. 1985;38:247–51.